

№389, 12-oktyabr, 2021 y.

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning
ishlanmalari bo'yicha

DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2021

Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2021 y. 11-oktyabr holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	238 757 668	(+ 302 212)
Sog'ayganlar soni	-	215 934 563	(+ 319 390)
Vafot etganlar soni	-	4 869 524	(+ 4 608)

Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	45 204 373	(+ 24 694)
	Hindiston	-	33 971 607	(+ 19 018)
	Braziliya	-	21 575 820	(+ 8 639)
	Buyuk Britaniya	-	8 154 306	(+ 34 574)
	Rossiya	-	7 804 774	(+ 29 409)
	Turkiya	-	7 444 552	(+ 28 370)
	Fransiya	-	7 056 511	(+ 3 991)
	Eron	-	5 716 394	(+ 13 504)
	Argentina	-	5 265 859	(+ 331)
	O'zbekiston	-	178 637	(+ 378)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



O'zbekistonga COVID-19 ga qarshi vaksinaning yana bir turi keltiriladi

Turkiya koronavirusiga qarshi Xitoyning 200 ming dozalik Sinovac vaktsinasini O'zbekistonga yuboradi- bu o'zbekistonliklar foydalanishi mumkin bo'lgan oltinchi turdagi vaksinadir [2, 3].

O'zbekiston va Turkiya hukumatlari sog'liqni saqlash sohasida beg'araz yordam berish to'g'risidagi bitimni imzoladi, deb xabar berdi Sog'liqni saqlash vazirligi matbuot xizmati. Marosimida O'zbekistonning Turkiyadagi elchisi Alisher Agzamxo'jayev va Turkiya sog'liqni saqlash vazirining o'rinbosari Xalil Eldemir ishtirok etishdi.



Shartnomaga ko'ra, "do'stlik va xayrixohlik belgisi sifatida Turkiya O'zbekistonga Xitoyda ishlab chiqarilgan Sinovac vaktsinasining 200 ming dozasini, shuningdek, koronavirusga chalingan bemorlarni davolash uchun 20 ming quti «Favipiravir» preparatini yuboradi».

Eslatib o'tamiz, Ayni paytda O'zbekistonda 5 ta turdagi vaktsinalaridan foydalanilmoqda: AstraZeneca, ZF-UZ-VAC2001, Sputnik V, Moderna, Pfizer / BioNTech. Hozirgi vaqtda respublikada jami 22 433 729 ta vaktsinalar foydalanildi. 5,1 milliondan ortiq odam COVID-19 ga qarshi to'liq emlandi [4].

Fransuz olimlari vaksinalarning COVID-19dan o'lim xavfiga qarshi yuqori samaradorligi haqida xabar berishdi

Fransiyaning Epi-Phare tadqiqot guruhining ma'lumotiga ko'ra, COVID-19 ga qarshi vakcina 50 yoshdan oshgan odamlarda kasalxonaga yotqizilish va o'lim xavfini 90 foizga kamaytiradi.

Franceinfo ma'lumotiga ko'ra, olimlar koronavirusga qarshi vaksinani ushbu yosh guruhidagi 11 million odamni emlashgan va shu guruhdagi emlanmagan tengdoshlar bilan solishtirgan. To'plangan ma'lumot 2020-yil dekabridan shu yilning 20-iyuligacha o'z ichiga oladi.



Shu bilan birga, birinchi guruhga faqat Yevropa Ittifoqida tasdiqlangan preparatlar, Pfizer / BioNtech, Moderna va AstraZeneca olgan bemorlar kiritilgan. Tadqiqotchilar vaksinaning ikkinchi dozasi dan keyin 14-kundan boshlab, kasalxonaga yotqizilish xavfi 90%dan kamayganini aniqladilar.

Bundan tashqari, ular vakcina koronavirusning delta variantiga qarshi ham samarali degan xulosaga kelishdi. Ushbu tadqiqot 20-iyundan 20-iyulgacha o'tkazildi – bu davrda Fransiyada kasalxonaga yotqizilganlar soni keskin oshgan edi. Bu davrda emlash samaradorligi 75 yoshdan oshganlar guruhida 84%, 50 yoshdan 75 yoshgacha bo'lganlar orasida 92% ni tashkil etdi [6, 7].



Shvetsiya o‘smirlarga COVID-19 ga qarshi vaksinani boshladi

11-oktabrdan boshlab 12-15 yoshli Shvetsiya aholisi COVID-19 vaktsinasini olish uchun yozilishlari mumkin. Mamlakatning ba’zi hududlari ma’muriyati yoshlar maktablarda vaktsinani qabul qilish niyatida ekanliklarini qayd etishdi, ammo ba’zi yig‘ilishlarda o‘smirlarga poliklinikalarga yozilish taklif qilinadi [8].

Taxminan bir oy avval, Shvetsiya sog‘liqni saqlash agentligi va Shvetsiya hukumati 12 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ham COVID-19 vaktsinasini taklif qilish kerakligini e’lon qilishgan edi. Keyinchali vaktsina jarayonlari noyabr oyida boshlanishini ma’lum qilishdi, ammo vaktsinatsiya jarayonlari avvalroq boshlab yuborildi. Bolalarga Pfizer-Biontech tomonidan ishlab chiqarilgan vaktsina taklif etildi.



Vaktsina uchun bola o‘n ikki yoshda bo‘lishi kerak. Agar emlash maktabda o‘tkazilmasa, bola ota –onasi hamrohligida bo‘lishi kerak. O‘n ikki yoshli bolalar uchun ikkala vasiyning roziligi ham talab qilinadi [9].

Latviyada COVID-19 bilan kasallanishning ko'payishi sababli favqulodda holat rejimi kuchga kirdi

Latviyada COVID-19 bilan kasallanishning ko'payishi munosabati bilan uch oylik favqulodda holat rejimi kuchga kiradi. Bu haqda 11-oktyabr kuni Kasalliklarning oldini olish va nazorat qilish milliy markazi [10] matbuot xizmati xabar berdi.




Mamlakat hukumati tomonidan yo'lga qo'yiladigan cheklolarning asosiy maqsadi emlanmagan fuqarolarga bosim o'tkazish va COVID-19dan emlash jarayonini kuchaytirishdir. Vaksina qabul qilmagan Latviya aholisiga asosiy do'konlardan tashqari katta supermarketlarga va boshqa obyektlarga tashrif buyurish taqiqlanadi.

Savdo vaqti cheklanganadi. Bundan tashqari, barcha ish beruvchilarga xodimlarni maksimal masofaviy ish shakliga o'tkazish tavsiya etiladi. Yopiq xonalarda, shu jumladan maktablarda, odam emlanganmi yoki yo'qmi, qat'i nazar, niqob taqish majburiy bo'ladi. Talablarning bajarilishini nazorat qilishda boshqa tuzilmalar ham ishtirok



etadi. Qayd etilishicha, majburiy emlash butun davlat sektori va xususiy korxonalar uchun joriy etilgan.



O'tgan bir kun ichida Latviyada COVID-19 infeksiyasining 1359 holati aniqlandi. Shu bilan birga, yuqtirgan 1071 kishi vaksinani olmagan yoki emlash kursini tugatmagan. Ijobiy testlarning ulushi 9,3%ni tashkil etdi. Kasallik darajasi (ikki hafta ichida 100 ming kishiga to'g'ri keladigan yangi holatlar soni) 871 taga yetdi. Bu mamlakatdagi yangi tarixiy maksimal ko'rsatkichdir [11].

1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (11.10.2021 г.)
2. ССВ: Ўзбекистонга олтинчи турдаги вакцина келтирилмоқда // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi> (11.10.2021 г.)
3. ССВ: Ўзбекистонга олтинчи турдаги вакцина келтирилмоқда // <https://t.me/ssvuz> (11.10.2021 г.)
4. В Узбекистан доставят еще один тип вакцины от COVID-19 // <https://uznews.uz/ru/article/34924/> (11.10.2021 г.)
5. Covid vaccines highly effective against Delta variant, French study shows // <https://www.thelocal.fr/20211011/covid-vaccines-highly-effective-against-delta-variant-french-study-shows/> (11.10.2021 г.)
6. Исследование показало, насколько прививка снижает риск смерти при COVID-19 // <https://ria.ru/20211011/vaktsinatsiya-1753978957.html> (11.10.2021 г.)
7. Ученые сообщили о высокой эффективности вакцин против риска смерти от COVID-19 // <https://og.ru/ru/news/122599> (11.10.2021 г.)
8. COVID-19 vaccination for children aged 12–15 // <https://www.folkhalsomyndigheten.se/the-public-health-agency-of-sweden/communicable-disease-control/covid-19/vaccination-against-covid-19/children-and-adolescents--information-about-vaccination-against-covid-19/> (11.10.2021 г.)
9. В Швеции стартовала вакцинация подростков от COVID-19 // <https://regnum.ru/news/society/3394759.html> (11.10.2021 г.)
10. В Латвии вступил в силу режим ЧС в связи с ростом заболеваемости COVID-19 // <https://regnum.ru/news/society/3394163.html> (11.10.2021 г.)
11. Covid-19 в Латвии: 1359 новых случаев, 7 летальных исходов // <https://rus.lsm.lv/statja/novosti/obschestvo/covid-19-v-latvii-1359-novih-sluchaev-7-letalnih-ishodov.a424968/> (11.10.2021 г.)



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2021